

Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz.  
Shavkat MIRZIYOYEV

# Tong yulduzi



Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 45 (67314)  
2020-yil 9-noyabr

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092



Abbos To'rayev, Respublika musiqa va tasviriyl san'atga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining yosh, umidli o'quvchisi. Bir qancha tanlovlard g'olib. Bu haqda gazetamizning keyingi sonlarida batafsil tanishasiz.



USHBU SONDA:



2-bet

8-bet

USTOZ USTOZIDAN  
DUO OLDI

«JIDDIY BOLALAR»  
OCHIQCHASIGA GAPLASHADI

# UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI



Bugungi kunda davlatimizda olib borilayotgan keng islohotlar zamirida inson manfaatlari, xalqimizning farovon hayoti, taqdiri yotadi. Yurtboshimiz tomonidan «Mamlakatimiz ta'lif-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Farmon loyihasi muhokamasi, sohadagi dolzab vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilish ta'lif sohasiga ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning yana bir ko'rinishidir. Mazkur Farmonni tahlil qilar ekanman, Uchinchi Renessans davri poydevorini qurishni boshlayotganimizni chuqur anglab yetdim. Binobarin, binoning poydevori qancha mustahkam bo'lsa, u shuncha uzoq muddatga xizmat qiladi. Farmon zamiriga ta'lif muassasalarining muqaddas dargoh ekanligi, muallimning mavqeini

oshirish, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish yosh avlodning kelajagi kafolati ekanligi singdirilgan.

«Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi», deyiladi Farmonda. Darha-qiqat, maktab Yangi Uyg'onish davrining ostonasi bo'lishi, shubhasiz. Shunday ekan, biz ustoz-pedagoglar Farmonda belgilangan vazifalar mohiyatini chuqur anglab, zimmamizdag'i mas'uliyatni teran his qilgan holda o'z vazifamizni bajarishimiz kerak. Zero, Yangi Uyg'onish davrining poydevorini mustahkam qurish O'zbekiston kelajagining porloq bo'lishi uchun muhim kafolatdir!

**Muhayyo MO'MINOVA,**  
**Buxoro viloyati, Romitan tumani**  
**«Barkamol avlod» bolalar maktabi direktori**

## USTOZ USTOZIDAN DUO OLDI

**Gullar shahri - so'lim Namanganda bir dugonam bor. Har gal Toshkentga kelganida diyordorlashamiz, maktab, o'quvchilarning ta'lif-tarbiyasi xususida suhbatlashamiz. Kamtar, xokisor dugonam Rahima Jo'rayeva Mingbuloq tumanidagi 13-umumta'lif maktabida nemis va ingliz tili fanlaridan qirq yildan buyon dars berib kelmoqda. Albatta, mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. «Do'stlik» ordeni, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» unvoni sohibasi bo'lgan ustoz bir necha kitoblar, jumladan, «Onamning qo'llari», «Tongdagi niyat» va uslubiy qo'llanmalar muallifidir.**

Novvoylar oilasida voyaga yetgan Rahima Jo'rayeva qishloq sharoitidagi qiyinchiliklarni ilm bilan yengdi. Ikki nafar o'g'li, qizining o'qishi bilan alohida shug'ullanadi. Shogirdlaridan bor bilimini ayamadi. Turli ko'rik-tanlovlari, seminarlar, fan olimpiadalari, musobaqalarda ishtirok etgan o'quvchilar, farzandlari ham o'z navbatida ko'plab yutuqlari bilan uning mehnatlarini oqlashdi.

Opaning katta o'g'li Doniyor bugungi kunda Germaniyadagi yirik kompaniyada, Elyor Yaponiyada faoliyat yuritmoqda. Qizi Zumrad esa maktab o'quvchisi, u ham iqtidori, matematikaga bo'lgan qiziqishi bilan sinfdoshlariga ibrat bo'imoqda, ustozlari ishonchini oqlamoqda.

Yaqinda Xalq ta'lifi vazirligi saytida Rahima Jo'rayevaning ta'lif uchun o'n million mablag' ajratgani haqida o'qib goldim. Keyinroq «Murabbiy» gazetasini orqali «Mulkobod» mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qilayotgan bemorlariga ko'mak, muhtoj oilalarga yordam berayotganidan xabar topdim. Namangan-ga borganimda esa Hasanboy Mamatliyevning minnatdorligidan boshim osmonga yetdi:

— Mahallamiz ahli Rahima Jo'rayeva ning oilasidan behad minnatdor. O'g'illari 17 ta xonadonga elektr simini tortti-

rib berishdi. Shuningdek, «Temir daftar»ga kiritilgan ijtimoiy himoya muhtoj mahalladoshlarimizga ham ko'mak berib turishadi. Opaning bir odatlari bor: «O'ng qo'ling bergenini chap qo'ling bilmasin», degan aqidaga amal qilib, qilgan yaxshiliklarini ko'pnинг orasida ovoza qilishimizga izn bermaydilar...

Ha, bu kabi ezgu ishlar xalqimiz ko'rinasmas yovdek kelgan koronavirus infeksiyasini yengish uchun bir tan-u bir jon bo'lib kurashayotgan ayni sinovli kunlarda ko'ngillarni ko'taradi, poklaydi.

1-oktyabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida Rahima opa 1-sinfda o'qitgan o'qituvchisi Buzahro Toshboltayevani yo'qlab bordi, ustoz ustozidan duo oldi, ruhan kuch-quvvat oldi. So'ng, viloyatdagi «Mehribonlik uyi»ga borib, u yerdag'i tarbiyalanuvchilarga o'quv qurollari tarqatdi. Ustozlarni bayram bilan tabriklab, qilgan ezgu amallaridan bir olam zavq oldi.

Ustoz Rahima Jo'rayeva saxovatpeshalik inson bo'lgan bobosini ko'p eslaydi:

— Hozir odamlar hashamatli uyi, tilla taqinchoqlari bilan boy hisoblanadi. Avvallari 40 ta qoramoli, qo'rasida qo'yи bo'lgan odamlar badavlat sanalgan. Bobom saxiy boylardan biri bo'lib, hozirgi «Shahand» bozorida har yakshanba kuni saharda 40 kilogramm guruchdan osh damlatib, xalqqa bepul tarqatgan ekanlar...

**Demak, saxovatpeshalik Rahima Jo'rayevaga bobomerov fazilat ekan. «O'zbegim ayo-li», «Ma'rifikatparvar, saxovatli muallim» nomiga munosib shunday ustozlar ko'payaversin.**

**Aziz o'quvchilar, balki ustozlar ringiz orasida Rahima Jo'rayeva kabilar ham bordir. Ular haqida yozing, ezgu amallaridan ibrat oling! Zero, sharqona fazilatlar – karam, saxovat, yaxshilik qilish barchamizga yarashadi.**

**Mahmuda VALIYEVA,**  
**«Sog'lim avlod uchun» ordeni sohibasi**



**Qissadan hissa shuki, Rahima Jo'rayeva «Tong yulduzi» gazetasiga 2021-yil uchun o'z hisobidan maktab kutubxonasi hamda bir nechta o'quvchilar uchun obuna bo'ldi. Bu an'ana ommalashib, respublikamizga yoyilsa, Rahimaxon opadek ma'rifikatli, fidoyi ustozlarning sa'y-harakatlari bilan yurtimizdag'i barcha maktab kutubxonalariga o'quvchilarning sevimli nashrlari yetib borsa, ayni muddao bo'lar edi.**

# INFORMATIONS ABOUT SNAKES



• There are over 3000 kinds of snakes in the world. They are present in every continent except Antarctica.

• Snakes, like other reptiles, are cold-blooded. This means that their body temperature changes in according to the temperature of their environment, unlike warm-blooded animals whose temperature remains constant. Snakes which live in colder climates will therefore hibernate in winter as it would otherwise be too cold for them to survive.

• Snakes cannot bite their food so in order to eat large prey, they will unhinge their jaw to swallow the food whole.

• Snakes can open their mouths up to 150 degrees, allowing them to eat things that are 75-100% bigger than their own size. It has even been known for a snake to burst after eating prey that is too big for its stomach!

• Snakes such as boas and anacondas suffocate their prey by squeezing it to death. Because snakes have a slow metabolism rate, they don't have to eat as often as other animals. The King Cobra can go months without having to eat.

• Snakes use their tongue to smell.

• A snake's skin does not grow with the body the same way it does in humans. Each year, snakes will shed their skins 3-6 times to allow for further growth. This process usually lasts for a few days.

• Some snakes can breathe partially through their skin allowing them to dive deep underwater.

• There are around 700 species of venomous snakes. The venom is used for self-defence and for killing prey.

• Rattlesnakes have a loud rattle on the end of their tail which they use if they feel threatened. Other snakes hiss when they are threatened.

## POSSESSIVE ADJECTIVES

**my, your, his, her, its, our, their**

The boy likes \_\_\_\_\_ school.  
Lisa sees \_\_\_\_\_ mother every day.  
My teacher bring \_\_\_\_\_ lunch to school.  
The cat eats \_\_\_\_\_ food quickly.  
I often forget \_\_\_\_\_ keys.  
You write in \_\_\_\_\_ book.  
We bring \_\_\_\_\_ pencils to class.  
The parents always take \_\_\_\_\_ kids to school.  
John teaches \_\_\_\_\_ class in the morning.  
Kelly likes to give presents to \_\_\_\_\_ friends.  
They never do \_\_\_\_\_ homework.  
Martrin sometimes wears \_\_\_\_\_ green t-shirt.  
We love \_\_\_\_\_ school.  
Brain and Sunny play with \_\_\_\_\_ friends.  
You always wear \_\_\_\_\_ uniform at school.  
The bird always sleeps in \_\_\_\_\_ nest.  
Elly always forgets \_\_\_\_\_ books at home.

## BODY PARTS OF WORD SEARCH

J	P	Q	V	H	A	N	D	X	Z	A	N	K	L	E
M	O	U	T	H	J	P	Q	V	X	Z	J	P	Q	V
X	Z	T	O	E	S	J	P	L	E	G	Q	V	X	Z
J	C	H	E	S	T	Z	X	V	V	X	Z	J	P	Q
K	N	E	E	Z	T	H	I	G	H	V	A	R	M	Z
Z	X	Q	P	J	J	W	R	I	S	T	P	Q	X	X
J	P	V	X	Z	N	O	S	E	P	Q	F	A	C	E
J	X	H	E	A	D	V	X	J	P	N	E	C	K	X
B	A	C	K	J	P	Q	V	X	T	E	E	T	H	Z
J	Q	V	X	Z	Z	X	S	H	O	U	L	D	E	R
V	X	Z	J	P	Q	V	X	T	H	U	M	B	Z	J
P	Q	J	E	L	B	W	V	Q	P	E	A	R	S	
Z	X	V	Q	P	F	O	O	T	P	B	O	D	Y	J
Q	J	X	Z	S	T	O	M	A	C	H	E	Y	E	Z
V	P	Z	F	I	N	G	E	R	J	H	A	I	R	V

**Instructions:** Find the word in the list below in the grid. Look across for the words. Circle the words. Put a check beside the words in the list when you find them.

Ankle	Elbow	Hair
Arm	Eye	Hand
Back	Face	Head
Chest	Finger	Knee
Ears	Foot	Leg
Mouth	Teeth	Neck
Thigh	Nose	Thumb
Shoulder	Toes	Stomach
Wrist		

## INPUT OR OUTPUT

**Input – information goes into computers.**

**Output – information comes out of the computers.**

**Write I for input and O for output for each device.**

- |                      |  |
|----------------------|--|
| 1. Monitor .....     |  |
| 2. Keyboard .....    |  |
| 3. Scanner .....     |  |
| 4. Pen .....         |  |
| 5. Printer .....     |  |
| 6. Mouse .....       |  |
| 7. Speakers .....    |  |
| 8. Camera .....      |  |
| 9. Touchpad .....    |  |
| 10. Headphones ..... |  |

# KIM QATRA DURIN TEJAR, YURTIN TAQDIRIN BEZAR

Tabiat bu yer, musaffo osmon, daraxtlar, jonivorlar, zilol suv va toza havo demakdir. Tabiat hodisalari, dov-daraxtlar, o'simliklar, jonivorlar va qushlar tabiat in'omlарidir. Biz bu in'omlarni qanchalik qadrlayapmiz? Afsuski, ko'pincha elektr-energiyasi, suv va tabiatga gaz kabi ne'matlardan noto'g'ri foydalanib, tabiatga ziyon yetkazamiz. Aslida, insonlar tabiat ne'matlarisiz yashay olmaydi. Hattoki taomlarimiz ham ular ko'magida tayyorlanadi. Yaqinda televideniye orqali Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'irot tumanida ichimlik suvi yo'qligi, bugungi kunda nafaqat u yerda, yurtimizning ba'zi aholi yashaydigan hududlarida ham suv tanqisligi haqida ko'rsatuv bo'ldi, ular ichimlik suvini sotib olishar ekan.

Yodimda bor, bolaligimizda onajonim yilning to'rt fasilda ham qo'shni mahalladan suv tashib kelardi. Hozirda hovlimizga suv quvurini o'tkazganmiz. Ikin gaz va elektr-energiyasi talab darajasida emas. Onam o'choq yoqib ovqat pishiradi, men esa dars tayyorlaydigan paytimizda chiroq o'chmasin-da, deb turaman. Ba'zi davlatlarda yashaydigan odamlar suvni oltin bahosida sotib oladilar.

Bizda-chi? Ayrim kishilar oqib turgan zilol suvga chiqindi tashlashadi. Balki suvni isrof qilayotganimiz uchun tabiat Orolni quritib, bizdan o'ch olayotgandir?! Ma'lumotlarga qaraganda, 1960-yilda Orol dengizing umumiyl maydoni 66,1 ming kvadrat kilometrni, hajmi esa 1083 kub kilometrni tashkil etgan, hajmi jihatidan sayyoramizda 4-o'rinda turgan ekan. Ma'lum vaqt ichida uning hajmi qariyb 11 barobarga, maydoni 4,2 barobardan ziyodga qisqardi. Suv sathi ham 29 metrga pasayib, qirg'oqlari yuzlab kilometrga chekindi. Shu o'rinda Qambar otaning «SUV» nomli she'ri yodimda tushadi.

*Suvdir olamning joni,  
Obod umr bo'stoni.*

*Suv bor joyda yashnar don,  
Tandirlarda pishar non.*

*Kim qatra durin tejar,  
Yurtin taqdirin bezar.*

*Zilol suvi bor Vatan,  
Yutuqlarga yor Vatan.*

Suv keltirgan elda aziz, deganlaridek, Urgut shahrimizning chekka qishlog'ida



yashovchi Onaxon muborak Haj safariga bormasdan, yig'ib yurgan pullariga ichimlik suvidan qynalayotgan mahallaga suv keltirdi. Mahalladoshimiz Hoji Onaxonning o'g'llari Sherzod aka Nazarov o'z mablag'lari hisobiga foydalanishga yaroqsiz bo'lgan 2 ta elektr transformator o'rniga yangilarini o'rnatib berdi va ko'pchilikning duosini olishdi.

Aziz tengdoshlarim, tabiiy boyliklarga boy bo'lgan mana shunday jannatmakon yurda yashayotganimizdan faxrlanib, bizga in'om etilgan tabiat tuhfalaridan oqilona foydalanaylik.

**Salohiddinjon SAYFIYEV,  
Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi  
118-umumta'lum maktabi o'quvchisi**



Kuni kecha Samarqand shahar «Barkamol avlod» bolalar muktabida o'tkazilgan «Ochiq eshiklar kuni» tadbiri ham aynan hunar o'rganishga bel bog'lagan o'quvchilar uchun o'tkazildi. Nargiza opa Qobilova rahbarligidagi ushbu muktabda bir nechta to'garaklar faoliyat yuritadi. To'qishga qiziqasizmi, marhamat, ushbu to'garak rahbari Nilufar opa Temurovadan bu hunarning sir-asrorlarini bemalol o'rganishingiz mumkin. Tikish-bichish to'garagi rahbari Farida opa Xudoyerova esa kelgisida tikuvchi bo'lishni orzu qilgan qizlarga bosh-qosh. Ustoz yordamida qizlar choynak


*Har bir inson bilim olishga, hunar o'rganishga doimo intilib yashaydi.  
Hatto o'quvchilik yoshidan biror-bir hunarni mukammal egallab, u  
orqali oilasiga, jamiyatga naf keltirishga harakat qilayotgan yoshlarimiz ham yo'q emas.*

yopgichdan tortib chiroqli liboslar tikishning-da uddasidan chiqishmoqda.

Lola opa Haydarova boshchiligidagi biser to'garagiga qatnaydigan o'quvchilarning ishlari bilan tanishsangiz, ularning mahoratiga qoyil qolmay ilojingiz yo'q.

Ularning oddiygina munchoqdan yasagan san'at asari darajasiga yetgudek buyumlari ko'rgazmaga ko'rк bag'ishlagan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

## «OCHIQ ESHIKLAR» KUNI MAZMUNLI O'TDI



Avaz Xolov rahbarligidagi tabla, chidirma kabi zarbli cholg'u asboblari to'garagiga qatnaydigan bolalar chalayotgan doira zarbi yer-u osmonni larzaga keltiradi, go'yo.

– Biz bu yerga mashg'ulotlarimizdan bo'shagan paytimizda biror hunar o'rganish maqsadida kelgan edik. Dizayner va tikuvchilik to'garagi faoliyatiga juda qiziqib qoldik va to'garakdagi tengdoshlarimiz singari xushbichim liboslar tikishni niyat qildik, – deydi Samarqand shahridagi 29- va 63-umumta'lum muktabi o'quvchilari Kamola Topiboldiyeva va Shahzoda Eshonqulova.

Bir so'z bilan aytganda, «Ochiq eshiklar kuni» tadbirida ishtirok etgan o'quvchilar-u ularning ottonalari bir olam taassurotlar bilan qaytishgani, shubhasiz.

**Ozoda TURSUNBOYEVA**

# KITOBLAR — AQL MANBAI

*Bolajonlar qalbida yaxshilik, ezhulik, ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini oshirishda aql farzandlari bo'lgan kitoblarning roli katta. Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'l'm maktabida tashkil etilgan Zamira Ibrohimovaning «Ko'zmunchog'im» kitobi taqdimoti nihoyatda fayz o'tdi.*



Taqdimot tashkilotchilari Dilobar Xojayeva, Muqaddas Abdullayeva, Zebo Hakimova boshchiligidagi 2-sinf o'quvchilari «Sakramachoq», «Yorug' uy» hikoyalari asosida sahna ko'rinishlari namoyish etishdi. Kitobdagi she'rlardan yod aytishdi. O'quvchilardan Halima Sunnatillayeva, Abdulaziz Ravshanov, Ulug'bek Abdurahmonov, Dilnoza Baxtiyorova, Asalbonu Raufova, Ibrohim Hasanov, Javlonbek Saidrahimovlar faoliyi, ijro mahorati bilan barchani o'ziga rom etdi.

— Bugun ilm maskanimizda qo'shaloq bayram bo'ldi, — deydi maktab direktori Shahnoza Rasulova. — Kutubxonachimiz



Yulduz Roziqova o'quvchilar bilan «Kitoblar karvonini kutib oldi. Bolalar qalbining bilimdoni, maktab darsliklariga ertak, hikoyalari kiritilgan ijodkor Zamira Ibrohimova bilan o'tgan kitob taqdimoti, qiziqarli muloqot ikkinchi bayram bo'ldi.

*Mahmuda ZOIRXON qizi,  
Xalq ta'limi a'lochisi*

## «KAMALAK»DA NIMA YANGILIK?

*Joriy yilning oktyabr oyida «Kamalak» bolalar tashkilotining VI onlayn-rayosat yig'ilishi bo'lib o'tdi. Rayosat o'zi qanday tadbir? Rayosat sevimli tashkilotimizda yil davomida amalga oshirilgan ishlar, yutuq va kamchiliklar yuzasidan mas'ullar tomonidan beriladigan yakuniy hisobotdir. Shuningdek, rayosat yig'ilishida yoshlarning iqtidorini namoyon etadigan va ularni munosib rag'batlantirib boradigan «Kamalak» yulduzлari» tanlovining Nizomiga ayrim o'zgartirishlar kiritilib, yangi o'quv yili uchun yangi g'oya va takliflar tatbiq etiladi.*

Navbatdagi rayosat yig'ilishi o'zgacha tarzda tashkil etildi. Mutasaddi vazirliklar xodimlari, faol yoshlari va sardorlar ishtirokida qizg'in suhbatlar olib borilib, kun tartibidagi barcha masalalar ko'rib chiqildi hamda ularga atroficha

2020–2021-o'quv yilda Respublika ittifoq sardori etib qashqadaryolik Marjona Jo'raqulova



yechim topildi. Rayosat yig'ilishining so'nggi daqiqalari quvchilari voqealarga boy bo'ldi. Bir qator faol yoshlari Respublika sardori degan nomga sazovor bo'lishdi. Jumaladan,

tayinlangan bo'lsa, «Kamalak» sardori vazifasi toshkentlik Islomali Ibrohimovga, «Press klub» yo'naliishi sardorligi esa navoiylik faol yoshlardan biri Zohid Malikovga topshirildi.

2019–2020-o'quv yilida Respublika ittifoq sardori vazifasida faoliyat olib borgan Boymurod Yunusov bu yil Respublika «Munozara» klubi koordinatori etib tayinlangan bo'lsa, o'tgan o'quv yili davomida respublika «Kamalak» sardori vazifasida ishlagan Ruxsora Shakirova joriy yildan Markaziy Kengashning sardorlar



*Kuni kecha maktabimizda oltin kuzni sharaflab*

## «KUZ TUHFASI»

*nomli bayram ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.*

Bayram ko'rgazmasi ko'tarinki kayfiyatda bo'ldi. Albatta, bunga Charos Soliyeva, Noila Ebadullayeva, Mohinur Saidova, Xolida Abdazova kabi faol o'qituvchi va sinf rahbarlarining o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashib, o'quvchilarni bayramga munosib tayyorlay olganlilari sabab bo'ldi, desak, yanglishmagan bo'lamic. Bayram dasturida aytilgan she'rlar hamda raqs ijrolari barcha-barchaga o'zgacha xushkayfiyat ularashdi. Tadbir so'ngida o'quvchilar yurtimiz ona tuprog'i qanchalar saxovatli ekanini, uni asrashimiz, ozor bermasligimiz kerakligini anglab yetdilar va hamisha ona Vatanimizga munosib farzand bo'lishga va'da berdilar.

*Saida HAYDAROVA,  
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 71-«A» umumta'l'm  
tarmoq maktabining ma'naviy va ma'rifiy ishlar  
bo'yicha direktor o'rindbosari*

masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimida ish olib boradigan bo'ldi.

Anglaganingizdekk, bu yil «Kamalak» bolalar tashkilotida o'zgarishlar juda katta. Men ulkan marralarni zabt etaman, kelajakda xalqimiz koriga kamarbasta komil inson bo'laman, deya belini mahkam bog'lagan yoshlarning barchasi bizning tashkilotimizda. Siz ham bizning safimizga qo'shiling va kelajagingizni bugundan quring!


*Ravshanbek RAISOV,  
O'zbekiston yoshlari ittifoqi Namangan  
viloyat ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy ishlar  
yo'naliishi sardori*

*(Davomi.  
Boshi o'tgan sonda)*

Ra'no buvim bu gapdan iyib ketdilar-da:  
– Mayli, maqtansa bir gap bo'lар. Hozircha  
bu xo'rozga yaxshilab qaranglar. Xo'pmi?!

Biz «Xo'p bo'ladi, buvijon», dedik baravariga. Bozorda xo'rozga yaxshi e'tibor bermagan ekanman. Bo'yи baland, to'shi keng, oyoqlari baquvvat, panja tirnoqlari o'tkir, nihoyatda mag'rur bu xo'roz, ajib chiroyli ham edi. Rangi qizg'ish oq patlarida qandaydir taram-taram to'q qizil

*Bahrom AKBAROV,  
bolalar yozuvchisi*



*Tong otmasdan oldinroq,  
Xo'rozlar shod qichqirar.  
Qiziq, tong otganini  
Ular qayoqdan bilar?  
– Endi mendan eshit:  
Tongda turib  
Shomda botgan,  
Ayting quyosh  
Qayda yotgan?*

Ikkalamiz bir-birimizga shu taxlit she'r o'qib o'tirgandik, hovlimizning etak tomonidan Ra'no buvimning xursand bo'lib gapirayotganlari eshitildi.

– Voy qurib ketmagur-ey. Voy seni qara-ey. Boshqa tovuqlaringga ham shunaqa mehribon bo'lsang bo'lmaydim?

Tamtumboy ikkalamiz nima gap ekan, deb buvimning yonlariga chopib bordik. Buni qarangki, Bibiqjon Nozikoyimni yoniga olib, buvim sochgan jo'xori donlariga boshqa tovuqlarni yaqinlashtirmay turardi. Boshqa tovuqlarga nisbatan chiroyli bo'lgan Nozikoyim (Kamola singlim qo'ygan nom) tantiqlanib, noz bilan donlarni erinchchoqlik bilan cho'qib yergi. Oradan taxminan yarim soatlar o'tdi shekilli, nihoyat Bibiqjon boshqa tovuqlarga ham don yeyishga ruxsat berdi. Shunda ham ikkitasiga. Ulardan keyin boshqa

## BIBIQJONNING JASORATI

yo'llari bo'lib, oyoqlaridagi paypoqlari o'ziga juda yarashgandi.

Biz xo'rozni tomosha qilib turgan paytimizda Kamola singlim bog'chadan kelib goldi.

– Vuy chiroylilagini... – dedi u shiringina qo'lchalarini xo'rozga cho'zib. – Oti nima, bu bibiqjonn?

– Nima deding? – dedi Matrayim. – Bibiqjon dedingmi? Uni otini sen qo'yding. Uning nomi Bibiqjon.

Xo'roz bu gapni eshitib «biq-biq»lab qo'ydi-da, sal nari ketdi. Nazarimda, bu nom xo'rozga ham yoqqandi.

– Bibiqjon, – dedi Tamsumboy IV. – Seni juda aqlli deyishgan edi. Qani, marsh tovuqlaringni oldiga, ularni hovli etagidagi inlaringga olib bor.

Men «Nima qilarkin?» deya xo'rozga qaradim. Xo'roz o'ng qanotini biroz yodi-da, tovuqlarni «biq-biq»lab bir joyga to'play boshladidi. O'nta tovuq bir joyga jam bo'lgach, hovlimizdagи yo'lak bo'ylab in tomon yura boshladidi. Xo'roz ortidan saf tortib ketayotgan tovuqlarga tikilgancha angrayib qoldik.

Ertasi kun ertalab xo'rozning qichqirig'idan uyg'onib ketdim. Turdim-u, Matmusa tog'am sovg'a qilgan soatga qaradim. To'raqishloq vaqt bilan soat beshta kam besh bo'libdi. Tamsumboy IV she'r yozib o'tirardi.

– Ha, – dedim Tamsumboyga qarab, – ilhom qo'ymadimi?

– Buni qara, – dedi u, – binoyidek she'r yozdim. O'qimi?

– O'qiy qol.

tovuqlar ham donni shoshib cho'qilay boshlashdi.

– Buni qara, – dedilar buvim. – Bu xo'rozing tushmagur, tovuqlar orasidan uchtasini ajratib, yonida olib yuribdi. Nima topsa, birinchi bo'lib shularga beradi-ya.

– Buvi, – dedi Tamsumboy IV kulib. – Xo'rozlarda ham muhabbat bor ekan-da.

Bu gap buvimga juda yoqib tushdi. Buni kulib yuborganlaridan sezdim.

– Hozirgi zamonning mushtumdek bolalarining aqli balo-da. Buni qara, shuni hech o'ylab ko'rmabman-a, – buvim tizzalariga qo'llarini shapatilab qotib-qotib kulardilar.

Tamtumboy IVning bu gapidan keyin men ham Bibiqjoni kuzata boshladim. Tamsumboy haq bo'lib chiqdi.

### ZIYRAK XO'ROZ


Bibiqjon bu uchala tovuqni juda avaylar, hovlidan nima topsa, birinchi bo'lib avval Nozikoyimga berar, keyin ikkitasiga, ortib qolsa boshqalariga ilinardi. Eng qizig'i, biz bergen ovqatlar va hattoki suv ham shu taxlit bo'linardi. Bir kun namozshomdan keyin Kamola va Komila tovuqlarga don berishdi-da, yonimga chopib kelishdi.

– Aka, aka, – dedi Kamola shoshib. – Bibiqjon nimagadir u yoqdan-bu yoqqa tipirchilab, inida jim turmayapti.

– Nega?

– Bilmadik, – dedi Komila chiroyli ko'zlari ni kattaroq ochib. – Balki o'ziz xabar olarsiz. U sizni gapingizga kiradi...

*(Davomi bor)*



## ONAMDAYIN MUQADDASSAN...

Mangu bo'lding toshbitiklar zabonida, Sayqal topding Qoshg'ariyning «Devon»ida, Ulug'landing Xos Hojibning dostonida, Onamdayin muqaddassan, ona tilim! Hikmatga boy, xushnafassan, ona tilim!

Seni sevdi, Navoiyni buyuk qilding, So'z mulkida tanho qilding, suyuk qilding, Ma'nolarining goh oshkor, goh tuyuq qilding, Onamdayin muqaddassan, ona tilim! Hikmatga boy, xushnafassan, ona tilim!

Yurt deb yonding Bobur Mirzo alamida, Erk deb yonding Cho'lpion tutgan qalamida, Sharaf topding bugun turkiy olamida, Onamdayin muqaddassan, ona tilim! Hikmatga boy, xushnafassan, ona tilim!

Xush yoqasan onam aytgan allalarda, Dilga kirib she'r-u g'azal, yallalarda, Faxrlandim sendan shunday pallalarda, Onamdayin muqaddassan, ona tilim! Hikmatga boy, xushnafassan, ona tilim!

Ona tilim, borliging baxt, Qomusimsan, Qadri baland, ardoqdagi nomusimsan, Dovruq yoygan, yorug' yuzim, haq so'zimsan, Onamdayin muqaddassan, ona tilim! Hikmatga boy, xushnafassan, ona tilim!

*Gavharoy ERGASHEVA,  
Andijon tumanidagi 26-umumta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

## NASIBAXON (Jiyanimga)

Jajji qo'llari  
Yuzimni silar,  
Xafa bo'lganimni  
Bir zumda bilar.

Agarda u kulsa  
Dunyo kuladi,  
Tabassum qilganda  
Ko'nglim to'ladi.

Ilk aytgan so'ziga  
Guvozman o'zim,  
So'zma-so'z qaytarar  
Har bitta so'zim.


Tashlagan qadamin,  
Ko'rganda ko'zim,  
Baxtli his qilaman  
O'shanda o'zim.

*Saodat ABDULLAYEVA,  
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi  
169-umumta'lim maktabi o'quvchisi*





## TEST



1. Mexanik soatlar o'rta asrlarda qaysi mamlakatda paydo bo'lgan?

- A) Yevropa;
- B) Fransiya;
- C) Germaniya.

2. Popkorn tayyorlash mashinasi ilk bor qaysi yilda ixtiro qilingan?

- A) 1985-yil;
- B) 1875-yil;
- C) 1885-yil.

3. Nyu-York shahrida ilk osma tramvay liniyasi nechanchi yilda qurilgan?

- A) 1877-yil;
- B) 1866-yil;
- C) 1876-yil.

4. Dastlabki avtobuslar paydo bo'lgan davlatlar qatorini toping.

- A) AQSH, Rossiya, Hindiston;
- B) Angliya, Fransiya, Germaniya;
- C) Xitoy, O'zbekiston, Rim.

5. Nechanchi yilda gazli suv kashf qilingan?

- A) 1787-yil;
- B) 1767-yil;
- C) 1757-yil.

6. Everest tog'ining shakli necha qirrali piramidani eslatadi?

- A) 3 qirra;
- B) 4 qirra;
- C) 5 qirra.


Zuhra NISHONOVA tayyorladi

## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

## SIRLI KROSSVORD

(Javob so'zları bo'yiga va eniga bir xil yoziladi)

1. O'rmonga kim qaragay, bo'ydor daraxt – ...?
2. Baliqdan shod har qalay, dengiz qushi – ...?
3. Ko'ylaklari xilma-xil, nomi bir xil, yozib bil.
4. Hunarmand mahsuloti, oshxonada ne ot?
5. «Alpomish»dan alp havas, qirg'iz dostoni – ...?



## AJOYIB OLAM

2020-yil bizni odatiy hayotimizni tubdan o'zgartirib yubordi. Endilikda hech qayerga parvoz qilmaydigan samolyotlarda «sayohat» qilish tobo ra ommalashib bormoqda.

sayohatchi ishtirok etish istagini bildirganlar. Virtual sayohat davomida sayohatchilarda layner Tayvanning so'lim orollariga parvoz qilayotgandek taassurot uyg'otiladi. Bu kabi taas-

PARVOZ YO'NALISHI  
«HECH QAYOQQA»

Gap shundaki, ko'pgina aviakompaniyalar pandemiya sharoitida daromadlarining katta qismidan ajraldi. Bu vaziyat dan chiqish uchun kompaniyalar mijozlarga virtual sayohat qilish taklifini bermoqlalar. Bu g'oyani birinchilardan bo'lib ilgari surgan aeroport Tayvandagi Sonshahn aeroporti bo'ldi. Eva Air va China Airlines bilan hamkorlikda uyuşhtirilgan tur ko'pchilik diqqat-e'tiborini tortgan. Lotoreya shaklida o'tkaziladigan virtual sayohat dasturida 7000 dan ortiq ko'ngilli

surot ham buyurtmachilarga arzonga tushayotgani yo'q. Chipta buyurish, ro'yxatdan o'tish, layner bortidagi tushlik barchasi «sayohatchilarga» 700 dollarga tushmoqda. Kuzatishda davom etamiz. Yil hali yakuniga yetmadi, 2020-yilning esa hali ko'p ajablanarli tuhfalari borligi tayin.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV



Pazanda qizga!  
Tovuq go'shti proteinlarga boy mahsulot. Bu moddaling inson organizmi uchun nechog'li foyda ekanligini sportchi aka-opalaringiz juda yaxshi bilishadi. Bugun sizlarga tavsiya qilayotgan taomimiz ham turli vitaminlarga boy.

AJOYIB  
DIMLAMA

**Kerakli masalliqlar:** 3 kg tovuq oyoqlari yoki 1 ta butun tovuq (bu katta oila uchun), o'simlik yog'i, ziravorlar (kashnich urug'i, murch, tuz), 1 bosh sarmsoqpiyoz va keragicha kartoshka.

**Tayyorlanishi:** ish avvalida tovuqni yuvib, nomiga tuzlab, ziravorlaymiz. O'rta olovda tovuq go'shtini qizartirib olamiz. Keyin kartoshkani ham qizarguncha qovuramiz. So'ngra, har ikkisini qozonga solib, us-tidan maydalangan sarimsoqpiyoz, tuz, murch solib, so'ngra bir piyola suv solib, past olovga qo'yamiz. Keyin likopchalarda dasturxonga tortamiz.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

# «JIDDIY BOLALAR» OCHIQCHASIGA GAPLASHADI



*Bolaligidanoq radioda faoliyat ko'rsatgan iqtidorli jurnalist bugun yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan barcha teletomoshabinlarga tanilishga ulgurdi. «Mening Yurtim» telekanalining taniqli boshlovchisi, yosh jurnalist Amirxon Umarov bilan bo'lgan suhbatimiz sizga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.*

**1995-yil 25-yanvarda Toshkentda tug'ilgan. Oilada besh nafar o'g'ilning ikkinchisi. Ayni damda O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining 3-bosqich talabasi.**

**«Muzqaymoq party», «Jiddiy bolalar», «Ochiqchasiga gaplashamiz» shousi kabi mualliflik dasturlariga ega.**

## – Amirxonning 7 yoshli chog'larini tasvirlab bering.

– O'zi kichkinagina bo'lishiga qaramay, katta sumkani yelkasiga ilib, dars jadvalida jismoniy tarbiya soati bo'lmasa ham doimo sport formasini, rasm darsi bo'lmasa ham rasm daftarini olib yuradigan, o'quv qurollari, kiyim-kechaklarini har yerda unutib qoldiradigan Amirxonni eslayman. Bu yoshimda o'ta romantik bola bo'lganman. Bog'chada ham birga tarbiyalangan bir chiroqli qizaloq bilan bir sinfda o'qirdik. Shu qizga yoqish uchun sho'xlik qiladigan, dars davomida unga ko'p qaraydigan Amirxonni yaxshi eslayman...

## – Bolalidagi sevimli mashg'ulotingiz?

– Prokuror bo'lish orzum edi. Bolalikda o'y-xayollarim cheksizligi uchunmi, hamma narsaga qiziqqanman. Qanday sport turi bo'lmasin, bar-chasi bilan qisqa muddat bo'lsa-da, shug'ullanganman. Gitara, doira kabi cholg'u asboblari, chet tili, rassomchilik to'garaklari ga qatnashganman. Bo'sh vaqtim deyarli bo'lmas edi.

## – Sehrli chiroq topib ol-sangiz-u, undan jin chiqib: «Uchta tilagingni tila», desa, nima so'ragan bo'lardingiz?

– Agarda bu savolningizni il-garioq berganingizda, umuman boshqacha javob bergen bo'lardim. Ammo hozir... nima deyishim mumkin?!

Birinci tilagim, yer yuzida suvsizlikdan, ochlikdan aziyat chekayotgan bolalarni har doim to'yib-to'yib chanqoq qondirishlarini, shirindan shirin taomlarni yeyishlarini. Ikkinci tilagim, hamma dardmand bolalar daridan forig' bo'lib, o'ynab-kulib, yugurib yurishlarini va uchinchi ti-



lagim, «Mehribonlik uyi»dagi bolalarning o'z oilasi, ota-onasi bo'lishini so'ragan bo'lardim.

## – Intervyularingizning birida jurnalist bo'lishimni asosiy sababchisi onam, degan ekansiz. Bu qanday bo'Igan?

– Onam 15 yil televideniyeda rejissor bo'lib ishlagan. Taxminan 5–6 yoshligimda ertalab «Axborot» dasturi tog'ridan-to'g'ri efirga uzatilar edi. ertalab soat otilarda onam meni ishga olib ketardi. Ko'rsatuv bo'layotgan vaqtida bir chekkada jimgina o'tirib tomosha qilardim. Milliy tele-radiokompaniyasi kanallarida efirga uzatiladigan bolajonlarga mo'ljallangan barcha ko'rsatuvlarga qatnashib kelardim. Ota-onamga bildirmasdan radioga borganman va «Ke-lajak tongi» radioeshittirishida qatnashganman. O'shanda o'n ikki yosh edim. Maktabda «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qirdim. Tahririyat bilan bog'lanib, men radioda ishlayapman, gazetada chiqishni istayman, deb iltimos qilganimda, meni qo'llab-quvvatlab, «Tong yulduzi»-gazetasida chiqarishgan. Bu mening baxtli bolalik damlarimdan esdalik bo'lib qolgan yorqin xotiralarimdan biri.

## – «Jiddiy bolalar» ko'rsatuvinning muallifi ekanligingizdan xabarimiz bor. Ushbu jaryonagi his-tuyg'ularingiz bilan o'rtoqlashsangiz.

– Bolajonlar bilan ishslash jonu-dilim. «Jiddiy bolalar» ko'rsatuvidan oldin «Chaqacha-chum» degan ko'rsatuvim bo'lardi. Ushbu ko'rsatuvga qatnashuvchilar soni ko'paygach, «Jiddiy bola-

lar» ko'rsatuvini tashkil etish haqida o'ylab qolganman. Bunda 200 nafarga yaqin kichkintoylar o'z savollari bilan ishtirok etishadi. Jiddiy bolalar ochiqchasiga gaplashadi va turli shartlarini respublikamizdag'i taniqli insonlariga taqdim etishadi. Ularga jiddiy tarzda, xuddi katta odamlar bilan gaplashgandek murojaat qilaman. Bolalardagi qiziqish va ishtiyoqdan zavqlanaman.

## – Esłaganingizda, yuzingizga tabassum yuguradigan xotiralardan so'zlab bering.

– Dadamning kasbi harbiy. Ya'ni, polkovnik. Ko'pincha meni o'zlar bilan olib ketardilar. Qish fasli edi. O'shanda qor juda qalin yog'gandi shekilli, yuraman deb qor ichiga botib qolganman. Ancha qidirishgandan so'ng topishgan. Bu voqeani eslab, na kulishimni, va na xafa bo'lishimni bilaman. Qiziqarli voqealar juda ko'p bo'lgan va davom etib kelmoqda.



## – «Tong yulduzi»ning o'quvchilariga tilaklariningiz...

– Tonggi yulduzdek yonib, charaqlab, porlab yashashlarini, qimmatli vaqtidan unumli foydalanim, orzularni, maqsadlarni, rejalarini, xohishlarini aniq belgilab olib, kerak bo'lsa, o'n yillik rejalarini oldindan belgilab, maqsad yo'lida shaxdam harakatlanishlarini tilakdoshiman. Ustozlar bilim chashmasidan qonib, ularni savolga tutib, tinimsiz izlanishlarini so'rab qolardim. Axir ustozdan o'tmag'an shogird shogird emas, degan naql bor xalqimizda.

Husan TURSUNOV  
suhbatlashdi

**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70**

**Tong yulduzi**  
Muassis:  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Axtamqul KARIMOV  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-sonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
www.tongyulduzi.uz  
e-mail: tongyulduzi1929@mail.uz  
telegram: t.me/tongyulduz  
Adadi - 1626  
Buyurtma - V 4401

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqt - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08